



“MUSIQA MADANIYATI” DARSLARIDA O’QITISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

(BOSHLANG’ICH SINFLAR MISOLIDA)

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

San`atshunoslik fakulteti “musiqa ta’limi” kafedrasi o`qituvchisi

M.O.Tuyunov

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiyligida o’rtalim maktablarining „Musiqa madaniyati” darslarida o’quvchilarni, milliy musiqa san`atimizga bo`lgan mehrmuhabbatini oshirish, musiqani mukammal tushina bilish, qo’shiq kuylashga doir nafas olish, diksiyani to’g’ri bajarish, ovoz diapozonini tarbiyalab borish va tovush chiqarish apparati,-artikulyataiyani rivojlantirishni o’rgatish metodikasi xususida tushunchalar yoritilgan. O’quvchilarni maktab yoshidan boshlab ijodkorlikka o’rgatish, ularda mustaqil improvizatsiya (tasavvur) qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va musiqiy tarbiyani tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlari: Pedagogika, psixologiya, estetika, axloq, talaffuz, artikulyatsiya, tasavvur, fantaziya, nutq, registr, temp, musiqiy idrok, eslash, eshitish, nafas gimnastikasi, nafas yo’li nazariy ma’lumot, cholg’u, ashula, xor.

Аннотация: В данной статье на занятиях «Музыкальная культура» общеобразовательных школ учащимся предлагается повысить любовь к нашему национальному музыкальному искусству, уметь в совершенстве понимать музыку, улучшить певческое дыхание и дикцию. Объясняется обучение правильному исполнению, тренировка голосового диапазона и развитие звукопроизводящего аппарата и артикуляции. Приведена информация по обучению учащихся творчеству со школьного возраста, формированию у них навыков самостоятельной импровизации (воображения) и разработке методики организации музыкального образования.

Ключевые слова: педагогика, психология, эстетика, нравственность, произношение, артикуляция, воображение, фантазия, речь, регистр, темп, музыкальное восприятие, память, слух, дыхательная гимнастика, дыхательный теоретический материал, музыкальный инструмент, пение, хор.



Annotation: In this article, in the "Music culture" lessons of general secondary schools, the students' love for our national music art, the perfect understanding of music, the breathing of singing, diction Concepts regarding the method of teaching the correct execution, education of the voice range and the development of the sound production apparatus and articulation are explained. Information is provided on teaching students to be creative from school age, forming their independent improvisation (imagination) skills, and developing a methodology for organizing musical education.

Key words: Pedagogy, psychology, aesthetics, morality, pronunciation, articulation, imagination, fantasy, speech, register, tempo, musical perception, memory, hearing, respiratory gymnastics, respiratory theoretical material, musical instrument, singing, chorus.

“Yangi O’zbekiston” yoshlarini kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy musiqa san`atimizga bo`lgan mehr-muhabbatini oshirish, bizga qoldirilgan ota bobolarimiz tomonidan ma`naviy-musiqiy me`rosimizmi butun dunyoga tanitish va targ`ib qilish bugungi kunning eng muhim vazifasiga aylangan. 2022-2026 yillarga mo`ljalgan “Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 5-yo`nalish 71-78 maqsadlariga tayangan holda va albatta O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan 5-muhim tashabbus doiasida ya`ni yoshlarni bo`shtini mazmunli tashkil etish hamda Yurboshimiz tomonidan 122-sonli qaror ijrosini ta`minlash, yosh-avlodni milliy musiqa san`atimizga bo`lgan mehr-muhabbatini oshirish asosiy vazifasi etib belgilandi.

Xususan umumiyl o’rta ta’lim maktablarining „ Musiqa madaniyati” darslarida asosan musiqa tinglash, nazariy ma’lumot va qo’shiq kuylashlar bilan dars mashg’ulotlari olib boriladi. Ush bu jarayonda dars mashg’ulotini yakka tartibda shug’ullantirishning iloji bo’lmaydi. Chunki butun bir sinf o’quvchilar bilan birgalikda, bir vaqtning o’zida dars mashg’ulotini olib borishni taqozo etadi. Sinfda kamida 22-25 ta o’quvchi bo’ladi. Xuddi shu tarzdagi ko’pchilik bo’lib shug’ullanadigan dars mashg’ulotlaridan biz:- „xor”sinfi, “ashulachilar ansambl”, “cholg’uvchilar ansambl”, “raqs to’garagi” va boshqalarni misol tariqasida kiritishimiz mumkin.



Ko'pchilik bilan shug'ullanishning o'ziga xos prinsiplari mavjud bo'lib, bunda:- o'quvchilaning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, psixologik jarayoni va fiziologik holatini e'tiborga olish muhim masala hisoblanadi.

Bolalar bilan ishslashda, kattalar bilan ishlagandan ko'ra ko'proq e'tibbor va jiddiy pedagogik uslubiy yondoshuv handa mehnat, talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi – o'quvchilariga nisbatan:- ham pedagog, ham psixolog, va ham do'st, bo'la olishi zarur.

Shuningdek birinchi sinf o'quvchilari **psixologik-fiziologik** xarakterga ko'ra, ma'lum darajada xotirasi, nutqi, diqqat-e'tibori va ovoz apparatlari to'liq rivojlanmagan hamda ovoz pardalari nozik va kuchsiz bo'ladi. Shunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishda, butun dars davomida ularni kayfiyatini yuksak darajada saqlashda, o'qituvchi:- **ochiq-samimiy, shirin muomalasi va yoqimli xatti-harakatlari** bilan erishishi lozim. Birinchi darsdanoq boshlab o'quvchilarni musiqiy uquvlari, kuylash hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib, ularni uch **differetsional** guruhga bo'lish lozim;

I-guruhga — iqtidorli musiqiy o'quvi musiqiy qobiliyati rivojlangan bolalar kiradi;

II - guruhga - musiqani aniq eshita oladigan, ammo sozga o'qituvchi ovoziga tayangan, holda tusha oladigan bolalar;

III - guruhga – sozga umuman tusha olmaydigan musiqiy uquvi bo'sh bolalar kiradi.

Shuning uchun o'quvchilarga qo'shiqni o'rgatishdan oldin ularga unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etib ijro etishni obdon uqtirish lozim. Bunda artikulyatsiyani to'g'ri yo'lga qo'yib, talaffuz jarayonida lablar, jag', til va albatta harflarni e'tibor bilan to'g'ri eshitilishiga qat'iy rioya etish zarur.

Hech bir musiqa asbobi inson ovozning o'rmini bosa olmaydi. Shuning uchun ham "musiqa madaniyati" darslarida ovozni yoshlik chog'idan boshlab avaylab, asrab tarbiyalab borish tavsiya etiladi.

Ashula aytish ashulachiga quvonch baxsh etibgina qolmay, balki uning musiqiy faoliyatida quyidagi o'zgarishlarni paydo qiladi.

1.Eshitish qobiliyatini o'stiradi va rivojlantiradi.



2.Nafas olish yo'llarini tartibga solidi.

3.Yurak sasudik ishlashini me'yorida saqlaydi.

4.Nafas gimnastikasini barpo etadi.

5.Talaffuzini rivojlantiradi.

6.Eslash qobiliyatini o'stiradi.

7.Artikulyatsiyani rivojlantiradi.

Demak qo'shiq aytishni o'rgatishdan oldin, yuqorida tushintirib o'tilganidek qo'shiqchining organizmidagi o'zgarishlarini, turli hayotiy misollar yordamida bolajonlar ongiga singdirish lozim. Albatta bunday jarayonni boshlashdan oldin o'quvshilarni quyidagi qoidalardan xabardor qilib qo'yish shart va juda muhimdir.

Qo'shiq aytish qoidalari

1.Qo'shiq aytayotganda qomatni rostlab erkin turish kerak.

2.Qo'shiqni mahin ohista va baqirmsandan kuylang. So'zlarni aniq va burro talaffuz qiling.

3.Qo'shiqni urg'uli bo'g'inlarini cho'zibroq aytинг.

4.Nafasni avaylab, misrani oxirigacha yetkazib ishlating.

5.Jamoa bo'lib qo'shiq ijro qilinganda o'rtoqlaringiz bilan birga kuylang.

6.Qo'shiq kuylaganda musiqa o'qituvchingizning qo'l harakatlariga qarab ko'rsatmalarini aniq bajaring.

7.Qo'shiq aytayotganda avval she'r mazmunini yaxshi tushunib oling.

Artikulyatsiya joyida bo'lmasa ijro etilgan asar - eshituvchiga to'la qonli o'z qiymatini va ma'no-mohiyatini yetkazib bera olmaydi. Vaholanki to'g'ri talaffuz etish – to'g'ri fikrlashni yo'lga qo'yadi.

Chunki musiqa madaniyati va musiqiy ta'lim asoslari, asosan boshlang'ich sinflardan boshlab yaratiladi. Boshlang'ich musiqiy ta'lim deganda bolalarni musiqa san'atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, musiqa haqidagi dastlabki bilimlarni



o'zlashtirish jarayoni va natijasi tushuniladi. Bu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari - **san'at va hayotga hissiy jihatdan yaxlit munosabat**; musiqa san'atining axloqiy va estetik mohiyatiga mos keladigan **musiqiy idrok**, ijrochi va tinglovchining ma'naviy-ijodiy munosabatlarining namoyon bo'lishi sifatidagi ko'rinishlardir. Boshlang'ich sinflardagi "**musiqa madaniyati**" darslari bolalarning **tasavvur va fantaziyalarini** rivojlantirish, **tabiat shakllari** va **san'at shakllari** o'rtasidagi munosabatlarni tushunish, ularning umumiyligini his qilish qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Keling, har bir sinf uchun kichik maktab o'quvchilarining musiqiy ta'limi tuzilishining taxminiy mazmunini ko'rib chiqamiz.

I- Sifda choraklarning asosiy tematik mazmuni quydagilarni o'z ichiga oladi. Bular:-**Musiqa nima?. U nimadan iborat. Uni kim bastalaydi, kim ijro etadi va kimlar tinglaydi?**. Keyinchalik - insonning kayfiyati va musiqadagi kayfiyatning ifodasi. Undan keyin esa - musiqaning elementar janrlari bo'l mish - qo'shiq, raqs, marsh, hazil qo'shiqlar va nihoyat, musiqada ifodali ta'sir kuchini baxshida etuvchi - musiqiy nutqning elementlari kabi mazmunlarini aniqlash va ular haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. Unda musiqa san'atning alohida mustaqil shakli sifatida intonatsiya haqida, musiqaning hissiy va obrazli mazmunlari- quvnoq, g'amgin, mayin, sokin, tantanali, hayajonli va boshqalar musiqiy elementlar haqida hikoya qilinadi. **Nutq temp, dinamika, ohang, ritm, registrlar** va boshqalar musiqaning nutq intonatsiyasi bilan aloqadorligi ko'rsatiladi.

1.Birinchi sinfda musiqa darslarining boshlanishi, boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining muhim bosqichlaridan biridir. Shunung uchun birinchi sinf o'quvchilarining musiqiy ta'lim-tarbiyasiga to'liqroq to'xtalib diqqat-e'tiborda bo'lish zarur. Birinchi sinf o'quvchilariga musiqa haqida gapirganda tushunarli va soddarroq qilib, adabiy tilda va iloji bo'lsa mahalliy sharoitga moslab tushuntirib berish juda ham muhim hisoblanadi. Masalan: "**Radio, televidenie, konsert zallari va teatrлarda yangraydigan musiqalarni qanchalik ko'p tinglasangiz, qanchalik ko'p tushunsangiz, shunchalik quvonch bag'ishlaydi**".



Bundan tashqari, mahalliy san'atkorlarni ham misol tariqasida ta'riflab berish, yaxshi natijalarga olib keladi. Musiqiy bilimlarini mustahkamlash borasida, yodlash uchun bolalarga qisqa va ixcham bo'lgan musiqiy mavzularni uyg'a vazifa etib tayinlash tavsiya etiladi.

Musiqiya mashg'ulotlarini olib borish jarayonida quyidagi uslublarda, ko'rgazma va tarqatma materiallardan unumli foydalanib, boz ustiga o'qituvchining o'zi jonli ravishda shaxsan ko'rsatib, sodda tarzda tushintirib, namuna sifatida ijro etib bersa a'lo natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Bular quyidagilardan iboratdir:

a). Musiqiy tovushlarni kuylashda - qo'shiq aytayotgan bolalarning rasmini ko'rsatib berish, o'qituvchining o'zi ijro etib ko'rsatib va birga kuylashi.

b). Cholg'u asbobini chalishni o'rgatishda - cholg'uchining rasmini tarqatib, shaxsan cholib ko'rsatish va o'quvchilar bilan birga qo'shilib cholish

c). Raqs harakatlarini tasvirlashda – raqqosa yoki balerinaning rasmini tarqatib berib, raqs harakatlarini jonli ravishda ko'rsatib berish va bolalar bilan birga raqsga tushish.

d). Notalarni yozishni o'rgatish uchun esa musiqiy nota chiziqining rasmini tarqatib so'ngra notalarni nota chizig'ida joylanishishlarini sinf taxtasida (doskada) yozib ko'rsatish, hamda bolalarning nota daftarida yozib o'rganishlariga ko'maklashishdan iborat. Xuddi shi tarzdagi uslubda darsni tashkil etilsa, albatta yuqorida keltirilgan musiqiy bilim natijalariga erishsa bo'ladi degan umiddamiz.

Endi II- Sinfdag'i jarayonni ko'rib chiqamiz.

II, III va IV sinflardagi musiqiya darslari ko'p jihatdan I sinf o'quvchilarining musiqiy tarbiyasining tabiiy tarzdagi davomi bo'lib hisoblanadi va shu bilan birga, yangi bilim hamda ko'nikmalar paydo bo'la boshlaydi. Birinchi sinfda o'zlashtirilgan bilimlari "bekor ketmaydi" (unitilmaydi), balki bundan oldingi mavjud bo'lgan asoslarga (bilimlarga) qo'shimcha sifatida qo'shilib boradi.

2. Ikkinci sinfda musiqaning rivojlanish qonuniyatları va musiqiya asarlarining kompozitsion qurilishi intonatsiya haqidagi hikoya bilan - butun musiqiy asar davomida o'rganiladi; musiqiy va eshitish tajribalarini to'plash davom ettirilib boriladi.



Ovoz apparatlarini nozikligi, mo'rtligi, ovoz pardalarining to'la shakillanmaganligi sababli ovozlari falset tizimida yangraydi. **Ovoz diapazoni (DO1 - RE2) gacha bo'ladi**

Musiqa tinlash jarayonida turli xildagi milliy, zamonaviy va bolalarbop "hazil qo'shiqlar hamda bastakorlik musiqi asarlari"- tinglash uchun namoyish etiladi. Masalan; O'zbek xalq kuyi "Do'londa", "Andijon polkasi", "Qari navo", va shunga o'xshash bolalarga xos musiqalarni ko'plab misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari qo'shiq kuylash jarayonida xalq og'zaki ijodi me'rosini bolalar tomonidan o'rganilishi, ularning tub ildizlari va birlamchi manbalarini tarixiy xotira sifatida anglash muhimligi jihatidan zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Musiqiy ta'lif mazmuniga folkloini kiritishdan maqsad bolalarni milliy madaniyat va tarbiya bilan tanishtirishdan iborat. Bu jarayonda o'qituvchining oldiga - bolalarda o'zbek xalq qo'shiqlarini ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish, ularda o'z xalqining an'analariga qiziqish va hurmatni singdirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, xalq madaniyatini o'rganilgan asarlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zbek xalq qo'shiqlarida mavjud bo'lgan milliy muhitini chuqur o'rganish – millatning kundalik hayoti, turmush tarzi o'z xalqining urf-odatlarini o'rganish juda muhimdir. Xalq og'zaki ijodini o'rganishda ko'cha sharoiti va muhiti, millat marosimlari va bayramlari yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilar bilan turli xil ekskursiyalar tashkil etish o'quv jarayonining muhim qismiga aylanishi koni foydadir. Maktabda o'qib o'rgangan bilimlarni maktabdan tashqari ko'cha-kuyda va ekskursiyaga chiqib o'z ko'zlari bilan ko'rishlari – bu bola ongining fotosintez jarayonini rivojlantirib, esida saqlab qolishiga katta sabab bo'ladi.

3.Uchinchi sinfda esa o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu nuqtai nazaridan musiqada mustaqil harakat qila olishlari taxmin qilinadi. O'zbek va qardosh xalqlar musiqi madaniyatining badiiy qadriyatlarini tushuna bilishlari, bastakorlar ijodidan namumalar, o'zbek musiqasining o'ziga xosligi va uning xalq madaniyati bilan aloqadorligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari nazarda tutiladi. Bolalar uchun "o'zbek xalq asboblari orkestri", "uning cholq'u asboblari guruhi" kabi tushunchalarni, "Xonandalar ansambl", "Cholg'uchilar ansambl", "Raqqosalar ansambl" va "Yakkaxon



ashulachi”lar hamda “Yakka ijrochilik” san’ati haqidagi ma’lumotlarga ega bo’ladilar. O’zbekiston yurti hayotidagi “Konsert zallari”, “Musiqa tanlov konkurslari”, “Ashula va raqs guruhlari”, “Qo’shiq festivallari”, “Ijrochi musiqiy guruhlar”, “teatr” va “bolalar teatri”, “kino”, “bolalar musiqa maktabi”, “musiqiy o’rta ta’lim”, handa “oliy musiqa ta’limi muassasalaridan xabardor bo’lishlari- kelajakda o’sib kelayotgan yosh avlodning nozik tabiat egalari, yuksak didli, yetik va estetik tarbiaga ega bo’lgan shaxs bo’lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Uchinchi sinf o‘quvchilari ovoz **diapazoni do1 – mi2** Shunga qaramasdan, darsning har bir elementini tajribalarga asoslanib tushuntirish lozim.

4.To‘rtinchi sinf o‘quvchilari o‘zlarining psixologik - fiziologik xarakteriga ko‘ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo‘ladilar.Diqqat e’tibori turg‘unlashgan bo‘ladi. Jiddiy bo‘lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo‘lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo‘ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.Bu xususiyatlarni barchasini o‘qituvchi nihoyatda o‘ylab oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi zarur. Bundan maqsad bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san’atiga qiziqishidan iboratdir.4-sinf o‘quvchilarining vokal-xor malakalari bir xilda rivojlangan bo‘lmaydi. Chunki, ba’zi boshlang‘ich sinflarda musiqa fanidan mutaxassislar dars berishmaydi. Mutaxassis ish olib borgan joy da esa o‘quvchilar sof unisonda kuylash, ansambl va qo’shiqlarni me’yoriga yetkazib, ikki ovozda kuylash darajasiga ega bo‘ladilar. **4 -sinf o‘quvchilarining ovoz diapazoni (do 1, mi 2).** 4-sinfda ham o‘quvchilarni diffirentsial guruhlarga bo‘lib o‘rgatish lozim bo‘ladi, Chunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtov, kuliminatsion rivojlangan davri hisoblanadi. Shuning uchun, darsda ko‘proq kuylatish maqsadga muvofiqdir.

Biz aminmizki, agar o’rta maktab “musiqa madaniyati” o‘qituvchilari o’z ish jarayonlari davomida mana shu yuqoridagi barcha tavsiya etilgan pedagogik faoliyatdagi metodik uslublarga qattiq rioya qilgan holda ish olib borsalar kelajak hayotdagi ezgi pedagogik maqsadlarga albatta erishiladi.



Bu jarayonda pedagog turli zamonaviy uslublar- (tarqatma material, o'quvchilarni gruhlarga bo'lish, texnik vositalardan foydalanish va interfaol uslublarni qo'llash)dan foydalananib o'quvchilarni dars mashg'uloti jarayonida zerikishiga, ularning mashg'ulotga qiziqib qatnashishini so'ndirmaslikka va aksincha ularni jonu-dili bilan mashg'ulotga qatnashishlarini yo'lga sola olishni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. **Chunki o'quvchilarning ongli ravishda o'zлari chin dildan xohlab darsda ishtirok etishini ta'minlay olish bu, - o'quvchilarning bayramona kayfiyatda bo'lib, ovoz paylarining a'lo darajada ishlashini ta'minlab beradi.**

Xuddi shu yo'sindagi ish uslubidan maqsad:- boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy hayotga qiziqishini jonlqntirish va shu bilan birga ovozni tarbiyalab borishni ta'minlaydi. Shuning uchun **pedagog xodim** dars mashg'uloti davomida bor pedagogik mahoratini ishga solib, o'quvchilarni zeriktirmay darsni sermazmun bo'lishini ta'minlay olishi shart. Maqsad o'quvchi bolalarni estetik tarbiyasini rivojlantirib, go'zallikni ongli ravishda tushunish va anglay olishini ta'minlashdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki – inson ovozini musiqiy sistemada eng noyob va eng murakkab hamda o'ta nozik musiqiy asbob deb aytishimiz mumkin. Agar biror bir musiqiy asbob nosoz bo'lsa, yoki sozi buzilgan bo'lsa, uni sozlaydigan mexanizmlaridan foydalananib uyoq-buyog'ini burab sozlab olishimiz mumkin bo'ladi. Ammo inson ovozi buzilib qolsa uning tuzatishning iloji yo'q. Bunday holatni xalq tilida “ falonchining obozi buzilgan,yoki obozi yirtilgan degan gaplar yuradi. Yuqoridagi barcha ezgu fikrlarimizga tayangan holda, kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni to'g'ri tarbiyalab borish bu albatta mehribon murabbiy ustozlarimiz zimmasidadir. Garchand ustoz muallim o'zi mashg'ulot olib borayotgan sinf o'quvchilari uchun;-ularning ko'zida” muallim-ustoz” bo'lib ko'rinsada, ammo o'quvchilari uchun do'st, sirdosh va kerak bo'lsa o'z bolasidek mehr bilan yondoshishi lozim. Shundagina zamonaviy pedagogik talablarga javob bera oladigan pedagog xodimlar etishib chiqishini ta'minlab bergen bo'lamiz.

Xususan 2022-2026 yillarga mo`ljalgan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ning 5-yo`nalish 71-78 paragrflari maqsadlariga tayangan holda va albatta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan 5-muhim



tashabbus doiasida ya`ni yoshlarni bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda Yurtboshimiz tomonidan 122-sonli qaror ijrosini ta`minlash, “Yangi O`zbekiston” yoshlarini kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy musiqa san`atimizga bo`lgan mehr-muhabbatini oshirish, bizga qoldirilgan ota bobolarimiz tomonidan ma`naviy-musiqiy me`rosimizmi butun dunyoga tanitish va targ`ib qilish maqsadida ushbu maqolada o’z ifodasini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ- 112-sonli qarori. www.lex.uz

2. Sh.Mirziyoyev. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san’at // Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi, 7 sentabr, 2018 y.

3. A.Haydarov, I.Yuldashev. “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to‘plami. “Oltin meros Press” nashriyoti. 2020-y.

4.N.Norxo’jaev.Musiqa.1-2-sinflar.Darslik. 2018-y. Musiqa. 3-Sinf. Daralik. 2016-y Toshkent.G’.G’ulom nashriyoti.